



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/DUDN4622

DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI
(TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)

Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

*mustaqil izlanuvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti**irodaxojiyeva024@gmail.com**ORCID: 0009-0001-6197-7830*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilini davlat tili fani sifatida o'qitishning asosiy tamoyillari, yondashuvlari, hozirda mamlakatimizdagi tojik tilli maktab o'quvchilari, ulardagi billingvizm masalasi, funksional-kommunikativ yondashuvning afzallik va kamchiliklari tojik tilli maktablar misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: davlat tili, tojik tilli maktablar, davlat tilini o'qitishning asosiy tamoyillari, yondashuvlar, billingvizm, ikkinchi til.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются основные принципы и подходы к преподаванию узбекского языка как государственного, современное положение учащихся таджикоязычных школ в нашей стране, проблема биллингвизма среди них, а также преимущества и недостатки функционально-коммуникативного подхода на примере таджикоязычных школ.

Ключевые слова: государственный язык, таджикскоязычные школы, основные принципы обучения государственному языку, подходы, биллингвизм, второй язык.

Abstract. This article examines the basic principles and approaches to teaching Uzbek as a state language, the current situation of students in Tajik-language schools in our country, the problem of bilingualism among them, as well as the advantages and disadvantages of the functional-communicative approach using Tajik-language schools as an example.

Key words: state language, Tajik-language schools, basic principles of teaching the state language, approaches, bilingualism, second language.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida til o'zlashtirish, til o'qitish metodlari yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, mazkur ishlarning natijalari orqali qo'lga kiritilgan ma'lumotlar tahlil etilganda, til o'qitishning o'ziga xosliklari, tilni ona tili yoki birinchi til (Language - 1), ikkinchi til – (Language - 2), chet tili yoki xorijiy til (Foreign language) sifatida o'qitish kabi tushunchalar rivojlana boshladi. Xususan, tilni ona tili sifatida o'qitish, tilni ikkinchi til sifatida o'qitish, tilni chet tili sifatida o'qitish metodlarining o'xshash va farqli tomonlari o'rganildi. Unga ko'ra, birinchi til bu – bolaning tug'ilganidan boshlab tabiiy holda o'rgangan va keyinchalik boshqa tillarni o'rganishida asos bo'ladigan til, ikkinchi til esa "bu – inson tug'ilgandan so'ng tabiiy ravishda o'zlashtirgan o'z ona tili (ya'ni, birinchi til – L1) asosida o'zlashtiriladigan yoki ma'lum maqsadda o'rganiladigan boshqa bir tildir"⁶⁸. Bundan tashqari, "Ikkinchi til – asosiy so'zlashuv tili boshqa bo'lgan holda, o'qish, ish va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladigan jamiyat boshqaruvida amal qiladigan rasmiy til bo'lib, odatda ona tilidan boshqa tilda so'zlashuvchilar foydalanadigan til hisoblanadi.

⁶⁸ Hatch, E.M. Second language acquisition. – Kaliforniya, 1978. – 488-s.



Chet tili esa o'quvchining ijtimoiy kontekstida qo'llanilmaydigan, kundalik hayotda qo'llashga ehtiyoj sezilmaydigan, sayohat va madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan, shuningdek, maktabdagi o'quv dasturlari tarkibida qo'shimcha til sifatida o'rganiladigan tildir".⁶⁹ Shuningdek, "Xorijiy til yoki chet til – maktabda o'rganilgan va funksional jihatdan chegaralangan til bo'lib, asosan millatlararo muloqotda qo'llanadi. Xorijiy til unda so'zlashuvchi, uning egasi bo'lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo'lmagan tildir. Ikkinchi til shaxsning ona tilidan keyin o'rganadigan tilidir. Keyinchalik hayot tarzi va sharoitga qarab bu til funksional jihatdan yoki ikkinchi til sifatida qo'llanadi, yoxud birinchi o'ringa chiqadi. Ona tili va xorijiy (yoki o'zga) tilni o'rganish orasida katta tafovut mavjud. Ona tilini inson ongli ravishda o'rganishga intilmaydi, balki kichik yoshidan fikrlashga o'rganish jarayonida o'zlashtiradi. Ona tili bola uchun, avvalo, jamiyatning tajribasini o'zlashtirish vositasi, keyin esa o'z fikrini ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi"⁷⁰.

Tilni ona tili, ikkinchi til va chet tili sifatida o'qitishning o'ziga xos farqli tomonlari dastlab til o'qitish metodlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tili mamlakatimizda bir vaqtning o'zida o'zbeklar uchun ona tili, O'zbekistonda yashovchi o'zga millat vakillari uchun ikkinchi til, xorijliklar uchun esa chet tili sifatida o'qitiladi va o'qitish jarayonida tilga turli yondashuvlar asosida qaraladi. Misol uchun, o'zbek tili xorijliklarga birinchi bosqichda A1 darajani (beginner) egallashni talab etsa, (tanishtirish, salomlashuv, oila, o'zingiz haqingizda gapirish), ona tili o'qitishda bu yondashuv o'zini oqlamaydi. Ikkinchi til o'qitishda esa o'zbek tilini ona tili kabi o'qitish ham, xorijliklarga xos boshlang'ich darajadan boshlash ham tavsiya etilmaydi, ya'ni bu yerda mutlaqo yangi tamoyil, metod va yondashuvlar asosida o'qitish lozim bo'ladi. Chunki ikkinchi tilni o'qitishning o'zi o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi: Ayni vaqtda tilni ikkinchi til sifatida o'qitishning o'zi ham tilni til muhitida o'qitish (respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillariga o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish) hamda til muhiti mavjud bo'lmagan holatda o'qitish (xorijiy mamlakatlarda o'zbek tilini o'qitish) yo'nalishlariga bo'linadi⁷¹. Shuning uchun ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayoni *tilni o'zlashtirish va tilni o'rganish* sifatida farqlanadi. Ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayoni 2 usulda amalga oshadi, shunga ko'ra, o'zlashtirish va o'rganish deb farqli ravishda izohlanadi⁷²:

1) *tabiiy o'zlashtirish usuli* (norasmiy o'rganish – Informal learning) – ko'p jihatdan bolaning o'z ona tilini o'zlashtirish jarayoniga o'xshab ketadi. Bu usul bir kishining hayotiy vaziyatlar taqozosi bilan o'z ona tilidan boshqa tilda so'zlashuvchilar orasida yashashiga to'g'ri kelganda va umuman boshqa bir til

⁶⁹ Muriel Saville-Troike. Introducing second language acquisition. – Texas, 1936. – 13-s.

⁷⁰ Asilova G.A. O'zbek tilini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari. – T.: ilmiy maqola, 2023. – 65-s.

⁷¹ Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 6-s.

⁷² Muriel Saville-Troike. Introducing second language acquisition. – Texas, 1936. – 27-s.



muhitiga tushib qolganda sodir bo'ladi. Masalan, yapon bolasi AQShga olib kelinganda, ingliz bog'chasi yoki maktabiga boradi, atrofida ingliz muhiti bo'ladi. Bola esa hech qanday til o'rganish darslarisiz ham bora-bora ingliz tilida so'zlasha oladigan darajaga yetadi. Bu jarayon hayotiy vaziyat ehtiyoji o'laroq yuz beradi. Shu sababdan ham birinchi tilni o'zlashtirishga o'xshaydi.

2) *maqsadli o'rganish usuli* (rasmiy ta'lim – Formal learning) – tilni alohida kurslar va o'quv qo'llanmalari orqali, tizimli ravishda o'rganishni nazarda tutadi. Masalan, xitoylik talaba AQShga o'qishga keladi va til o'rganish maqsadida ingliz tili kurslariga boradi yoki Polshada o'qiyotgan talaba arab tilini o'rganish uchun qo'shimcha darslar oladi. Ikkinchi tilni bunday o'rganish usuli odatda o'rganuvchilarning maqsadidan kelib chiqib tashkillashtirilgani bois tilni tabiiy o'zlashtirish jarayonidan nisbatan uzoqroq bo'ladi.

Shu o'rinda ma'lum tilni tabiiy o'zlashtirish bevosita kishilarning tildan foydalanish ehtiyojidan ham kelib chiqishini qayd etish zarur. Masalan, O'zbekiston hududi qadimdan ko'p millatli davlatlardan biri bo'lib, aholining etnik tarkibi, shu tilda so'zlashuvchilarning soni nuqtayi nazaridan ta'lim olish tillari: o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, rus, tojik etib belgilangan. Mamlakatning ma'lum hududlarida qozoqlar va o'zbeklar, o'zbeklar va tojiklar, o'zbeklar va ruslar, o'zbeklar va turkmanlar, o'zbeklar va qirg'iz, o'zbeklar va qoraqalpoq millati vakillari aralash holda istiqomat qilishadi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bir hududda ish va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladigan, jamiyat boshqaruvida amal qiladigan rasmiy til⁷³ va oila muhitidagi til ko'p hollarda bolaning har ikki tilni ham tabiiy o'zlashtirishga olib boradi va ikki tillilik muhiti shakllanadi. Bunday holatdagi bolalar bilingual deb ham yuritiladi. Sababi insonning eng birinchi o'rgangan tili uning birinchi ona tili bo'lsa, ikkinchi til undan so'ng o'rganilgan til sanaladi, lekin bilinguallik muhitida bola har ikki tilni ham o'zlashtiradi. "Bilingvizm – har ikki tilda so'zlash (va o'ylash) qobiliyati bo'lib, bu tillar umumiylikka ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi va turli ildizlarga ega bo'lishi, ikkala til ham rasmiy, ham norasmiy vaziyatda qo'llanishi mumkinligi ta'kidlanadi"⁷⁴.

Xuddi shunday biz tadqiq etayotgan tojik tilli maktablarda o'zbek va tojik tillari bolalar uchun rasmiy va norasmiy vaziyatlar tufayli birdek o'zlashtirilgan, ya'ni oila davrasi, mahalla, qishloqda ishlatiladigan til – tojik tili bo'lsa, o'qish, ish jarayonida rasmiy davlat tili – o'zbek tilidan foydalaniladi. Sababi tojik tilidan foydalanish chegaralangan bo'lib, korxona, ta'lim muassasalarida asosiy ish davlat tilida yuritilishi belgilangan.

Bundan tashqari, "...ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda ham "o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish" atamasi ishlatilib kelindi. Keyingi yillarda esa umumiy o'rta ta'lim bosqichi o'quv dasturlarida milliy maktablarda o'zbek tilini o'qitishga nisbatan

⁷³ Muriel Saville-Troike. Introducing second language acquisition. – Texas, 1936. – 13-s.

⁷⁴ Shamsiyeva M.B. Bilingval bolalar nutqining psixolingvistik tadqiqi. – A.: PhD avtoreferati, – 2022. – 12-s.



ona tili atamasi, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili atamasi qo'llana boshlandi. Shunga mos holda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun chop etilayotgan darsliklar ham "O'zbek tili" deb, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'qitish "davlat tili ta'limi" deb nomlanmoqda"⁷⁵.

O'zbek tilini mamlakatda yashab turgan o'zga tilli aholi qaysi darajada egallashi va qanday tamoyillarda yondashish lozim? Sababi qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq tillari o'zbek tili bilan bir til oilasiga mansub bo'lsa, rus va tojik tillari alohida, farqli til oilasidan hisoblanadi. Qolaversa, davlat tilidan kundalik hayotda foydalanish darajalari millatlararo turlicha. Masalan, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq millatiga mansub o'quvchilar hayotiy vaziyatlarda (o'qish, ish) ko'proq o'zbek tiliga murojaat etsa, rus millatiga mansub o'quvchilarning o'zbek tilidan foydalanish ehtiyoji nisbatan kamroq. Demak, ular tilni o'zlashtirish uchun katta zaruratga qisman ega emas. Kishilar bilan muloqot jarayonini rus tilidan foydalanib amalga oshirishadi, ta'lim olish uchun rus tiliga ixtisoslashgan maktab va oliy ta'lim muassasalari mavjud.

Yuqoridagi asoslarga ko'ra davlat tili ta'limi bugungi kunga qadar turli tamoyillar, yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. "Til o'rganishda asosan nutq, muloqot yuritish, kommunikatsiya masalalari yetakchi o'rinda turgani uchun til ta'limi tamoyillarini belgilashda ko'proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi. Jumladan, til ta'limida muloqot yuritishga o'rgatishda qo'llanib kelayotgan eng faol tamoyillar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi"⁷⁶

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning asosiy tamoyil va yondashuvlari

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy o'qitishning asosiy tamoyillari yondashuvlar

- | | |
|-------------------------------------|--|
| 1. Aspektlar tamoyili. | 1.Lingvistik yoki an'anaviy tizimli tamoyil. |
| 2. Struktura tamoyili. | 2.O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitish tamoyili |
| 3. Aspektli struktura tamoyili. | 3.Funksional-kommunikativ yondashuv. |
| 4. Transformatsiyalash tamoyili. | |
| 5. Funksional tuzilish tamoyili. | |
| 6.Ideografik grammatika yo'nalishi. | |
| 7. Kommunikativ tamoyil. | |

1-jadval.

O'zbek tilini rus yoki boshqa tilli guruhlarda o'qitishning yuqorida keltirilgan zamonaviy yondashuvlarining o'ziga xos tomonlari bilan birga turli

⁷⁵ Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 12-s.

⁷⁶Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 14-s.



kamchiliklarga ega ekanligini ham ko'rib o'tish lozim. Masalan, 1. Lingvistik yoki an'anaviy tizimli tamoyilda⁷⁷ asosiy e'tibor o'zbek tilini ona tili kabi chuqur, grammatik izchillik bilan o'qitishni nazarda tutsa, 2. O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitish tamoyili⁷⁸ turli kasb-hunarga oid matnlar ustida ishlash, kasbiy atamalaming nutqda qo'llanishini o'rgatish, kasb-hunarga oid suhbat matnlari vositasida o'quvchi-talabalar kasbiy, ixtisosiy nutqqa moslashtirish, ixtisoslik bo'yicha matnlarni tahlil qildirish jarayonida talabalarning kasbiy nutqqa oid lug'at boyligini o'stirish kabilarni o'z ichiga oladi. 3. Funksional-kommunikativ yondashuv⁷⁹ esa "ma'lum o'quv dasturlari asosida "... kundalik muloqot ehtiyoji uchun zarur bo'lgan nutqiy mavzular va nutqiy modellar vositasida o'quvchilarda o'zbek tilida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda erkin ifodalash, mustaqil so'zlashish ko'nikmalarini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan. Bunda o'quvchi-talabalarga grammatik mavzulami emas, balki muayyan fikmi ifodalash uchun zarur bo'ladigan nutqiy qurilmalar asosida biron-bir nutqiy mavzuda so'zlashishga o'rgatish ko'zda tutiladi, grammatik qoidalar esa faqat nutqiy ehtiyojdan kelib chiqib beriladi. Shuning uchun har bir mavzu bo'yicha beriladigan fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) bilimlar til sathlari bo'yicha emas, balki kompleks holda berilib, o'quvchilarni 4ta asosiy amal: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish asosida nutqiy faoliyat yuritishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, o'zbek tilini kommunikativ yondashuvning mavzuviylik yoki funksional-semantik yo'nalishlari mavjud bo'lib, birinchisida "o'zbek tili" dasturi va darsliklari nutqiy mavzularga bo'lingan holda tuziladi va shu mavzu :rasida faol qo'llanadigan grammatik vositalarni o'rgatib borish rejalashtiriladi. Biroq nutqiy mavzularning yetakchilik qilishi grammatik bilimlarni tarqoq holda berilishiga, mustahkamlanib borilmasligiga, mavzularning taqvimga mos tarzda takrorlanib kelishi (ya'ni qishda qish, kuzda kuz mavzulari, bayramlarning har yili qaytarilishi) oqibatida qaytariqlar yuz berishiga, natijada, o'zbek tilining o'qilishda uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanmasligiga olib keldi. Haqiqatan ham, mavzuviylik leksikani bir mavzu :rasida jamlab borishda qulaylik tug'dirsada, lekin bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tganda, oldingi o'rganilgan leksikadan keyingi mavzularda deyarli foydalanilmasligi faol leksik minimumni puxta o'zlashtirmaslikka olib kelmoqda. Mavzuviylik tamoyili so'zlarni guruhlab o'rganish uchun muayyan qulaylik yaratsada, so'zlarning takroriy ishlatilish chastotasini ta'minlashda mutlaqo noqulay, grammatik vositalarni izchil rejalashtirish masalasida esa uning qulaylik tomoni yo'q darajada. Ushbu prinsip asosida tanlangan o'quv materiallari bilimlarni umumlashtirish, ularni izchil tizimga solish, mazkur bilim va tushunchalarning tarkibini, mohiyatini anglashga

⁷⁷Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 17-s.

⁷⁸Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 17-s.

⁷⁹Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 18-s.



imkon bermaydi. Bunday sharoitda o'quvchilar nima asosiy, qaysi tushuncha ikkinchi darajali, muayyan holatning sababi va oqibati nimadan iborat, qaysi xususiyat muhim, qaysisi esa uning tarkibiy qismiga kiradi, xatolar, noaniqliklarning uzviyligi qayerda ko'rinadi, degan savollarga aniq javob topa olmaydilar. Ular egallagan bilimlar dinamik xarakter kasb etmaydi. o'quvchi taqdim etilgan bilimlar iyerarxiyasi (pog'onaviyligi) va uzviyligini aniq his etsa, ulaming o'zaro aloqadorligi va bir-biriga ta'sirini anglasagina, bu bilimlar muayyan ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi.

Shuning uchun ham darsliklarda mavzular nomi o'zgartirildi: "Funksional-semantik yondashuvda aynan shu maqsadni amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, shundan kelib chiqqan holda hatto mavzularni ham sof grammatik tarzda emas, balki semantik (ma'naviy) nuqtai nazardan nomlash, ya'ni mavzularni "Sifat", "Sifatning ma'no turlari" yoki "Sifat darajalari" deb emas, balki "Insonning tashqi qiyofasini yoki xususiyatlarini tavsiflash", "Narsa-buyumlarni tasvirlash" yoki "Vaqtini ifodalash", "Sababni ifodalash" kabi nomlash rejalashtirilib, bunda sifatlarning o'zini emas, muayyan fikrni ifodalashdagi amaliy qo'llanishini o'rgatish ko'zda tutiladi. Ko'rinadiki, mazkur yondashuvda grammatik mavzularning ham muayyan bir izchillik asosida o'qitilishi nazarda tutiladi, ammo bu izchillik o'zbek tilining tizimli grammatikasi asosida emas, balki funksional-semantik nuqtayi nazardan, ya'ni muayyan ma'noga bog'liq fikrni ifodalash yo'llari, usullaridan kelib chiqib belgilanadi"⁸⁰. Keyingi yillardagi darsliklar yaratilishiga nazar solsak, bu yondashuv amaliyotda qo'llanilayotganligini ko'ramiz. O'zbek tilidan yaratilgan 6-,7-,10-sinf "O'zbek tili" darsliklarida grammatik mavzular ma'lum bir fikrni ifodalovchi so'zlar asosida yoritildi. Misol uchun, 10-sinf "O'zbek tili" darsligida ko'chirma gap va o'zlashtirma gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi "Nechta do'stim bo'lishi kerak?" nomli mavzu orqali berilib, mashq va topshiriqlar tarkibi dialoglar orqali bayon qilingan⁸¹.

Rus sinflar o'zbek tilini o'qitish uchun bu tamoyil asosida yondashish manfaatli bo'lishi mumkin, lekin tojik tilli guruhlarda yana bir muammoni, ya'ni nutqiy mavzular bilan yaxshi tanish bo'lgan kundalik hayotda o'zbeklar bilan keng muloqotda bo'lgan o'quvchilarning darsga, fanga qiziqishi pasayishini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, 10-11-sinflarda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tayyorlanayotgan o'quvchi uchun o'zbek tili darsliklarida grammatikaning nutqiy vaziyatlarga moslashtirga holda tarqoq berilganligi ularda grammatik bilimlarning sust ekanligini ko'rsatadi. To'g'ri, avvalo, o'zga millat vakillari uchun eng muhimi o'zbek tilida ravon so'zlasha olishni ta'minlash, lekin mamlakatimizda til muhitida yashayotgan, yoshligidan har ikkala tilni teng o'zlashtir olib boriladigan maktab o'quvchilari respublikamizning ko'plab viloyatlarida (Farg'gan o'quvchilar talaygina.

⁸⁰ Muhiddinova X.A. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: o'quv qo'llanma, 2023. – 23-s.

⁸¹ Asilova G.A. [va boshqa.]. O'zbek tili 10-sinf, – Toshkent: darslik, Respublika ta'lim markazi, 2022. – 22-s.



Xususan, bugungi kunda Respublikamizda ta'lim tojik tilidaona, Surxandaryo, Samarqand, Buxoro, Namangan, Toshkent viloyati, Navoiy⁸²) istiqomat qiladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil, 10-oktabrdagi "Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim olish tili bo'yicha tasniflanishi haqida" bergan ma'lumotlariga ko'ra, **tojik tilida:** jami maktablar soni – **470 ta**, shundan: faqat tojik tilida dars olib boriladigan maktablar soni – **132 ta**; aralash tillarda dars olib boriladigan maktablar soni – **338 ta deb qayd etilgan**⁸³.

Xulosa qilib aytish joizki, O'zbekistondagi aholining o'zbek, rus millatiga mansub kishilaridan keyingi yirik qatlami tojiklar sanaladi. Shu bois, ta'lim tojik tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida o'zbek tilini tojik sinflarda o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirish, ikkinchi til sifatida o'qitishning murakkabliklari hamda multilingual muhitda davlat tili sifatida o'qitishning o'ziga xosliklarini tadqiq etish dolzarb sanaladi. Qolaversa, nafaqat tojik tili maktablarda, balki o'zbek tilidan kundalik hayotdan keng foylanuvchi millat vakillari uchun o'zbek tilini ikkinchi til va ona tili sifatida o'qitishning integratsiyalashtirgan holatida o'qitish maqsadga muvofiq.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/JWAB6795

ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGİ ÜZERİNE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAYCAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ

Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı

Alişir Nevai adında Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Doktora öğrencisi

mahinuraktr@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2845-7383

Özet

Bu çalışma, Türkiye, Azerbaycan ve Özbekistan'daki yükseköğretim kurumlarında edebiyat öğretiminin hangi paradigmlar etrafında şekillendiğini analiz etmeyi amaçlamaktadır. Millî edebiyat anlayışı ile ortak Türk edebiyatı yaklaşımı arasındaki gerilim, pedagojik uygulamalar, müfredat içerikleri ve kuramsal altyapı bağlamında incelenmiştir. Her üç ülke de tarihî, kültürel ve dilsel ortaklıklarına rağmen öncelikle kendi millî edebiyatını merkezde tutmakta; ortak edebiyat ise çoğunlukla tanıtıcı düzeyde ele alınmaktadır. Bu makale, her iki paradigmanın dışlayıcı değil tamamlayıcı şekilde kurgulanabileceğini savunmakta; edebiyat öğretiminde karşılaştırmalı yaklaşım, ortak müfredat ve ortak terminoloji önerileriyle çözüm yolları sunmaktadır.

⁸² Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi xabari // "Respublikamizda qancha tojiklar yashashi ochiqlandi", 2021-yil, 27-avgust. <https://xabar.uz/uz>

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim olish tili bo'yicha tasniflanishi haqida" ma'lumoti, 2023-yil, 10-oktabr, (2023-2024-o'quv yillari misolida) <https://uzedu.uz/uz/news/1285>



<i>И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО</i>	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzada. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLI KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAIJAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULİ RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSİK-SEMANTİK XÜSUSİYYƏTLƏRİ</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZISTENSIALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'YI INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шухалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOYIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEXNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIK LARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

